

KASB TANLASHNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Samiyeva Zarnigor Nazar qizi

Buxoro viloyat Jondor tuman MMTB qarashli
43-umumta'lim maktab psixologи

ANNOTATSIYA

Maqolada kasbning inson hayotidagi o'rni, uni tanlashda nimalarga va qanday omillarga ko'ra tayanish lozimligi, bunda maktab psixologlarining vazifalari nimalardan iboratligi, zero kasb inson umring mazmuni ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Kasb, inson psixologiyasi, qiziqish, moyillik, qobiliyat, mataxasis, mas'uliyat, istiqbolli sohalar.

Maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha joriy yilning 20-yanvar kuni kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqimizga Murojaatnomasida "ijtimoiy davlat" tamoyiliga alohida e'tibor qaratgan edi. Aynan aytganda, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir". Bunga erishishning asosi, birinchi navbatda, ta'lim. Shu bois Murojaatnomada maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat ekanligi hech kimga sir emas. Farzandlarimizning kasb tanlashlari, kelajakda o'z orinlarini topishlari uchun barchamiz birdek mas'ulmiz. Bu borada mamlakatimizda ham bir qator islohotlar prezidentimiz boshchiliklarida amalga oshirilib kelinmoqda. Buning yorqin misoli sifatida har maktab bitiruvchisi ikkita til va bitta kasbni mukammal darajada bilishi lozimligi haqidagi tashabbuslarini ko'rishimiz mumkin.

Kasb - bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin.

Kasb - bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir.

Kasbga xos bo ‘lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash, inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Yoshlaming kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi.Bu quyidagi ketma-ketlikda olib borilgani samaraliroq.

- Kasb tanlashga o‘quvchini aqlan va ruhan tayyorlash
- Kasbning ta’rifi va tabiatiga haqida bilimlar berish
- Qiziqish va qobiliyat tushunchasini ochib berish va o‘quvchining qiziqishini aniqlash
- Kasb tanlovini amalga oshirish va algoritmini ochib berish
- Kasb tanlovini tajribalar asosida amalga oshirish

Xilma - xil va qiziqarli kasblami tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni egallash hisoblanadi. O ‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o ‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Mas’uliyatli qaror qabul qilishda faqatgina atrofdagilarning tavsiyasiga tayanish emas, tahlilning boshqa muqobil variantlarini ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir,

1. Psixologik testlar-o‘zingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini psixologik testlar orqali birlamchi bosqichda aniqlab olish
2. Bilimlaringizni kengaytiring-turli kasbiy yo‘nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash
3. Kasblar bilan yaxshiroq tanishib chiqing tanlagan yo‘nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish
4. Istaklarni tizimlashtiring
5. Amaliyot-o‘zingizni sinab ko‘rish
6. Zaxira aerodromi -Asosiy tanlovdan tashqari, qo‘srimcha ravishda e’tiborga olinuvchi «zaxira» tanlov ham bo‘lishi
7. Mustaqil qaror qabul qilish

To‘g‘ri kasbni tanlash sizning barcha imkoniyatlaringizni ishga solishga, umidsizlikka tushmaslikka, o‘zingizni va oilangizni qashshoqlik va kelajakka nisbatan noaniqlikdan himoya qilishga imkon beradi. Har qanday biznesda bo‘lgani kabi, kasb tanlash ham maqsad qo‘yishdan boshlanadi.Maqsadlarimiz quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.



•Aniq- men adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotini olmoqchiman, Oka qirg‘og‘idagi qishloqdan uy sotib olmoqchiman, yaxshi bilim olmoqchiman, uch soat ichida marafon o‘tkazmoqchiman va hokazo

•Realistik- o‘z imkoniyatlari bilan bog‘liq — jismoniy, intellektual, moliyaviy, yosh va hk. (agar adabiy qobiliyat bo‘lmasa, adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti — bu haqiqiy bo‘lmasan maqsad, agar siz hech qachon yugurmagan bo‘lsangiz, unda marafonga chiqmaslik yaxshiroqdir

•CHeklangan vaqt- (maqsad — bu o‘z vaqtida amalga oshishi kerak bo‘lgan orzu Maktab psixologlarining bu boradagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarning qiziqishi, layoqoti va qobiliyatini aniqlovchi metodika, so‘rovnomalar o‘tkazish

- Olingen so‘rovnomalar natijalariga asoslangan holda to‘g‘ri yo‘naltirish va maslahat –tavsiyalar berish.

- Ta’limning keyingi bosqichlari haqida o‘quvchilarga ma’lumotlar berish, soha vakillari bilan uchrashuvlar, kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha sayohatlar tashkil etish Eng asosiysi kasb tanlashda quyidagi xatolarga yo‘l qoymasligimiz lozim

- Jamoaga qo‘silib kasb tanlash

- Kasbni u haqdagi tashqi tasavvurga qarab tanlash

- Biror bir kasb egasiga taqlid qilgan holda kasb tanlash

- O‘quv fanini kasbga o‘xshatish

- Faqat kasbning nufuziga qarab tanlash

- Kimga yoki nimagadir jahl qilib kasb tanlash

- O‘z qobiliyatini yetarli darajada hisobga olmaslik

- Tasoddifiy kishilar fikriga tayanish

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson kelajakdagи kasbni tanlashda, aynan shu narsa unga muhtoj ekanligiga, unga ijobiyl his-tuyg‘ularni berishiga yuz foiz ishonch hosil qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Jalolov A. “Kasb qanday tanlanadi”. – T.:Yangi asr avlodni”, 2010. –62-b.
- 2.Nabijonova D. “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish psixologiyasi”. Toshkent: 2002. -38 b
- 3.”Kasb psixologiyasi”. Abduraxmonov F.R, Abduraxmonova Z.E “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2018.
- 4.Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. “Umumiy psixologiya”. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 97 b
- 5.G‘oziev E.G’. “Ontogenetik psixologiyasi” - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.
<http://profnavigator.uz/>
<http://info-tashxis.uz/>
<https://e-kasb.uz/>
<https://kasb.edu.uz/>
<https://bilimlar.uz/>